

“TARJIMA JARAYONIDA LAKUNALAR: LINGVOMADANIY VA PRAGMATIK KONTEKSTLARNI MOSLASHTIRISH MUAMMOLARI (“DEVONU LUG'AT-IT TURK” ASARI MATERIALLARI MISOLIDA)”

Parpibayeva Maftuna Zafarjon qizi

Namangan tumani 3-maktab ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada M.Koshg'ariyning “Devonulug‘at-it turk” asarini qiyosiy o‘rganishga bag‘ishlangan. Hozirgi til nuqtayi nazaridan ma’nosini yo‘qotgan deb hisoblanuvchi va faqat frazeologik birliklar tarkibidagi ayrim so‘zlar va juftlashgan so‘zlar “Devonu-lug‘at-it turk”da alohida so‘z sifatida qo‘llanilgan. Bu lug‘at turkiy so‘zlar etimologiyasining o‘zgarmas manbasidir.

Kalit so‘zlar: Lug‘at, so‘z ma‘nosi, maqol-matallar, frazeologizmlar, atama, etimologiya, ma‘no, dialekt, turkiy tillar, tovush.

KIRISH

Har bir xalqning adabiy tili og‘zaki nutq asosida paydo bo‘ladi. Tilning lug‘at tarkibida shu tilda gapiruvchi xalqning, uning tilining tarixiga bog‘liq boy tarixiy ma’lumotlar uzoq saqlanadi.

XI asrda yozilgan Mahmud Koshg‘ariyning asari turkiy xalqlari tarixini o‘rganishda ham muhim asar hisoblanadi. “Devonu lug‘at-it-turk” faqatgina shu davr uchun katta voqebo‘libgina qolmasdan, bugungi tilshunoslik uchun ham ahamiyatli asar. Mahmud Koshg‘ariyning bu asari barcha turkiy xalqlarga juda ham qimmatli bo‘lganligi uchun, turkiy tildosh xalqlari undan o‘z ona tillariga mos jihatlarini, belgilarini topa oladi. Bu – xalqlarning o‘tmishdagi tarixidan, urf-odatidan, til faktlaridan ma’lumot beradigan qimmatli asar. Mahmud Koshg‘ariy turkiylarning buyuk til arbobi, turkiy tilning darsligini ishlagan, grammatikasini tuzib, barcha turk olamining til hunarining rivojini kengaytirib, dunyoga tanitgan olim. Turkologiya tarixida u birinchi bo‘lib tarixiy qiyosiy usulni qo‘llab, turkiy tillarning tarixiy dialektologiyasining asosini yaratdi.

Unung shu tillarni solishtirib qiyosiy tarzda olib borgan ilmiy usuli butun Sharq tilshunoslariga ilmiy tahliliy usul sifatida alohida bir maktab bo‘lib shakllandi.

Eng qadimgi turkiy til tadqiqotchilaridan biri bo‘lgan Mahmud Koshg‘ariy, o‘zining yuksak lingvistik bilimlari bilan turkologiyaga beqiyos hissa qo‘shgan. U Turk dunyosining til, adabiyot va umuman madaniyat jihatdan Markaziy Osiyodagi eng yorqin davri hisoblangan Qoraxoniylar davrida yashagan. Madrasayi Hamidiyye va Madrasayi Sajiyeda tahsil olgan olim, turk dunyosiga ikkita noyob xazinani taqdim etgan bo‘lib, bular “Devonu lug‘otit Turk” va “Javoqir un-Nahvi fi Lug‘otit Turk” asarlaridir. “Devonu lug‘otit Turk”ning asl qo‘lyozmasi bizgacha yetib kelmagan. Dunyodagi yagona nusxasi Muhammad Abu Bakr ibni Abulfath Damashqiy tomonidan ko‘chirilgan. Bu nusxani Ali al-Emiri qo'lga kiritgan. Koshg‘ariyning devonda tilga olingan, ammo bugungi kungacha yetib kelmagan “Javoqirun-Nahvi fi Lug‘otit Turk” asari esa yo‘qolgan. Xuddi bir paytlar turklar orasida tarqalgan “Buyuk Xon Ato Bitig” va “O‘g‘uznama” asarlari kabi bu kitob ham turkologiyaning yo‘qolgan asarlaridan bo‘lib, bugungi Ali Amiri Afandilarni, haqiqiy kitob do‘stilarini kutmoqda... “Devonu lug‘otit Turk” asari Qoraxoniylar davri turk olimi va yozuvchisi Mahmud Koshg‘ariy tomonidan 1072-1074-yillar orasida yozilgan. O‘z davrining eng mashhur olimlaridan hisoblangan Mahmud Koshg‘ariy bu asarni yozgan davrida arab tilining turk tilidan ko‘ra mavqeい yuqori til ekanligi iddaosiga qaramay, turk tilining boy til ekanligini isbotlash maqsadida “Lug‘at” kitobi uslubida yaratgan. Bu yuksak til salohiyatining ikkinchi misolini buyuk shoir, mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy tomonidan turk tilining boshqa tillardan kam emasligini dalillash maqsadida yozilgan “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari misolida ko‘rish mumkin.

METODOLOGIYASI

Koshg‘ariy yillar davomida turk mamlakatlarini kezib, o‘zi ilmiy sohalarda tadqiqot olib borgan va so‘zdan tortib etimologiyasigacha ko‘rgan deyarli barcha madaniy elementlarini yozib olgan. Koshg‘ariy o‘z so‘zlari bilan: “Men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirqizlarning (qirg‘izlarning) shaharlarini, qishloq va

yaylovlari ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim, turli xil so‘z xususiyatlarini o‘rganib, aniqlab chiqdim.”-deydi. Binobarin, Koshg‘ariy turk qabilalari, madaniyati va urf-odatlari haqida katta hajmli material to‘plash orqali arab muhitiga turk tili va madaniyatini olib kirish, turk tili haqida yozgan grammatikasi bilan arablarga turk tilini o‘rgatishni maqsad qilgan. Shunday qilib, devon; arablarga turk tilini o‘rgatish va turk tilining arab tili kabi boy til ekanligini va undan kam emasligini ko‘rsatish maqsadida yozilgan ilk turkcha lug‘at sifatida ma’lum. Devonu Lug‘otit Turk madaniyatimiz va sivilizatsiyamizni ko‘p jihatdan aks ettirish nuqtai nazaridan turkiylikning asosiy asarlaridan biridir. Kitobning yaratilishida turkiy so‘zlar arab qoidalariga ko‘ra tartibga solingan va arabcha muqobillari bilan ma’nosini topgan. Koshg‘ariy bu asarni yozganidan uch yil o‘tib, Abbosiylar xalifasi Muqtadiy Billohga taqdim etadi. Uning bu xattiharakatini turkiy tilning ustunliklarini davlat tomonidan ma’qullah sifatida baholash mumkin. Bundan uch yuz yil o‘tib, lug‘at ilk bor Kilisli Rifatning tuzatishi bilan nashr etilgan; 1943-yili Turk tillari jamiyati a’zosi Besim Atalay tomonidan arab harflari lotin harflarida o‘z muqobilligini topgan. Devonning o‘zbek nashrlari bo‘yicha ilk tadqiqotlar 1940-yillarda boshlangan. O‘zbekistondagi nashrlar haqida bat afsil ma’lumotni ushbu sondagi maqolalardan olishingiz mumkin. Koshg‘ariy madrasada tahsil olgani uchun o‘qigan dars materiallari formatini o‘zlashtirib, ijodida mumtoz arab kitoblaridagi usulga amal qilgan. Boshqacha aytganda, Devonu Lug‘otit Turk nomli asar; Muqaddima hamd, salovat va salom bilan boshlanib, ish oxirida duo bilan yakunlanadi. Asar nafaqat lug‘at, balki hikmatlar, she’rlar, ayot va hadislar, turkiy qabilalarga oid belgilar, sheva farqlariga oid muhim topilmalar, lingvistik materiallar mazmuni bilan ensiklopediya hisoblanadi. Buyuk turk olimi Mahmud Koshg‘ariyni asar yozilganining 950 yilligi munosabati bilan hurmat bilan yod etamiz.

Turkiy xalqlarning boy tarixi, geografik holati, adabiyoti bilan hunari, etnografik o‘zgachaliklari “Devonu lug‘at-it-turk” asarida haqiqiy tarixiy dalillar bilan keltirilgan. U ko‘plab urug‘larning, qabilalarning til xususiyatlarini tanlab, turkiy tillarning ma’nosini solishtirib tushuntiradi, turmush tarzini, urf-odatini tavsiflaydi, shu davrdagi

bir qator yozuvchilarning, alloma va tarixiy shaxslarning ismlari bilan hayoti va ijodiy ma'lumotlarini, turkiy xalqlarning afsona va rivoyatlarini, maqol-matallarini keltiradi. Shu bilan bir qatorda u o'tgan davrdagi turkiy olamning xaritasini ishlab, unda Barisxan, Balasag'un, Taraz, Ikki og'iz, Qashg'ardan boshlab turk dunyosining oldingi shaharlarini, xalqlarning yashash manzillarni to'liq ko'rsatib beradi. Bu yerda uni turkiy olamning ilk izohlovchi ensiklopedik asari desak ham to'g'ri bo'ladi. Mahmud Koshg'ariyning ushbu devoni, o'zining keltirishicha, "oldin hech kim tuzmagan va hech kimga ma'lum bo'lмаган о'згача бир тартибда" tuzilgan. Ushbu asarda ko'p o'rnlarda dialektologiyaga tegishli izohlovchi qoidalar, grammatik, leksik, morfologik, semantik belgilar ko'rsatilgan. Asar o'rganuvchilarga oson bo'lishi uchun oddiy va tushunarli yozilgan. Unda qadimgi turk alifbosi, fonetik yozuv qoidalari, orfoepik va orfografik qoidalar puxta tushuntirilib berilgan. Devonda turkiy so'zlarning tuzilish tartibi, masalan, so'z tartibi, fe'lning turlari, so'zning etimologiyasiga bog'liq fikrlar bayon etilgan. Muallifning keltirishicha, kitob 8 bo'limdan, kirish va xulosa qismlaridan iborat.

NATIJALAR

Mahmud Koshg'ariyning ushbu devoni, o'zining keltirishicha, "oldin hech kim tuzmagan va hech kimga ma'lum bo'lмаган о'згача бир тартибда" tuzilgan. Ushbu asarda ko'p o'rnlarda dialektologiyaga tegishli izohlovchi qoidalar, grammatik, leksik, morfologik, semantik belgilar ko'rsatilgan. Asar o'rganuvchilarga oson bo'lishi uchun oddiy va tushunarli yozilgan. Unda qadimgi turk alifbosi, fonetik yozuv qoidalari, orfoepik va orfografik qoidalar puxta tushuntirilib berilgan. Devonda turkiy so'zlarning tuzilish tartibi, masalan, so'z tartibi, fe'lning turlari, so'zning etimologiyasiga bog'liq fikrlar bayon etilgan. Muallifning keltirishicha, kitob 8 bo'limdan, kirish va xulosa qismlaridan iborat. Har bir bo'limda atamalar va ism so'zlar, fe'llar alohida ajratib berilganligi o'quvchilarga oson o'zlashtirishiga yordam beradi. Asarda 7500 dan ortiq turkiy so'zlarning ma'nolari tushuntirilgan. "Devonu lug'at-it-turk" ham adabiy til ham asosiy turkiy dialektlarni o'z ichiga olgan, undagi adabiy til va shevalar ma'nolari bo'yicha o'rtacha adabiy tildagi 10-12 so'zga, shevadagi bir so'zga to'g'ri keladi, ya'ni umumiyligi adabiy tilga alohida ahamiyat berilgan. Bu holat o'sha davrda islom olamida

turkiy adabiy tilning qanchalik keng tarqalganligini va katta darajaga ega bo‘lganligini tasdiqlovchi dalil bo‘lib hisoblanadi. Asarda yuzlab insonlarning ismlari, shahar va qishloq, o‘lkalarning atamalari, daryo, tog‘, yaylov, vodiy, ko‘l, soy kabi geografik atamalar, turli urug‘, qabila, davlat, planeta, yulduzlar, mavsumlar tilga olinadi. Unda ta’riflangan grammatik ko‘rsatgichlar, morfemalarning hisobi mingga yaqin.

She’riy satrlar parchalarining ko‘plab bo‘limi turkiy xalqlarning og‘zaki ijodlariga mos to‘rtliklardan iborat. Biroq, asarda keltirilgan she’r qatorlarining 150ga yaqini islom davri she’riyatiga xos bo‘lgan “bayt” tilidagi parchalar bo‘lib, ularni Koshg‘ariyning o‘zi ham ko‘p o‘rinlarda “bayt” deb keltirgan. Kitobda 7 ta epik doston, muhabbat mavzusidagi she’rlar, koinotning yaratilishiga bog‘liq satrlar, qo‘shiqlar, tabiat ko‘rinishlarining ta’rifi, madhiyalar, falsafiy fikrlar uchraydi.

Mahmud Koshg‘ariy quyidagicha maqsad qo‘yadi: faqat turk tiliga tegishli so‘zlarnigina ko‘rib chiqish, shuning uchun ham asarda kiyimni, uy buyumlarini, qishloq chorvachilik mahsulotlarini, qurollarni, musiqaviy asboblarni, urug‘ va yana qabilaviy atamalarini, oziq-ovqat nomlarini, ovchilikni, o‘simgiliklarni, kun, oy, yil atamalarini, shaharlarni, kasallik nomlarini, dorilarni atab keladigan so‘zлarni uchratamiz.

MUHOKAMALAR

Turkiy xalqlarning yozma yodgorliklari, buyuk mutafakkirlarning meroslarini lingvistik tahlil qilish til tarixini, frazeologizmlarni, so‘z ma‘nolarini o‘rganish – kelajakda o‘z yechimini kutib turgan masalalardan. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘at-it-turk” asari XI asrda yozilishiga qaramasdan undagi so‘zlarning ko‘pchiligi hozirgi o‘zbek tiliga yaqinligi ko‘rinib turadi. Tarixni to‘liq o‘rganmay turib tilning rivojlanish yo‘lini belgilash mumkin emas. Shuning uchun turkiy xalqlarning merosiyo‘lyozma asarlaridan biri bo‘lgan Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asarining leksikasi hozirgi o‘zbek tilining leksikasi bilan solishtirib ko‘rilib chiqildi.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘at-it-turk” asari – qadimgi davrdagi turk dialekti, uning o‘zgachaliklari bilan fonetik va yana morfologik tuzilishlari haqida

ma'lumot beradigan yagona yodgorlik. O'rta Osiyoning, Sharqiy Turkistonning, Povoljiennenning, Priuraliening turkiy xalqlari bilan turli og'zaki ijodiy asarlari bor.

Arab tilshunosligining qoidalari bilan yozilgan Mahmud Koshg'ariyning asari, tilshunoslari, folklor-adabiyotshunoslari uchun bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

XULOSA

Xullas, Abdulla Oripov e'tirof etganidek, Temurning qilichi yetmagan joyga qalami bilan yetgan, jang maydonida emas, balki ilm-fan va tafakkur yo'lida kurash olib borgan ikki buyuk alloma sifatida butun turk dunyosining diqqat markazidadir.

O'zbek ilmiy tilshunosligining tayanch jabhasi bo'lmish – lug'atshunoslik bir necha asrlardan buyon shu fanning asosiy bo'g'ini bo'lib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, o'zbek tili lug'at tarkibida yuz bergan jiddiy o'zgarishlar, shu munosabat bilan davr talabiga javob beradigan izohli lug'at yaratish zarurati yuzaga keldi. Akademik A.Hojiyev rahbarligida O'zRFA o'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining (oldingi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti) bir guruh lug'atshunoslik bilan shug'ullanigan olimlar tomonidan 2006 – 2008-yillarda 5 jildli —O'zbek tilining izohli lug'atil dunyo yuzini ko'rди.

O'zbek tilshunosligida so'z boyligining oshib borishi asrlar davomida amalga oshirilgan bo'lib, shevalardan so'z olish, yangi so'zlarning yasalishi orqali, qolaversa, bu ilmiy tahlilda ko'rib o'tganimizdek, boshqa tillardan so'z olish tilshunoslikning rivojlanish bosqichini o'taydi va kelajakda boshqa sohalar qatori tilshunoslikning jabhalari jadal rivojlanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Абдиназимов Ш. Махмуд Қашғарийдин «Девону лугат-ит түрк» мийнети ҳэм қарақалпак тилиндеги айырым нақыл-мақаллар // Өзбекстан Республикасы ИА Қарақалпақстан бөлниминиң Хабаршысы. Нөкис, 2006, №4.
- Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. IV, Лексика. Нукус, 1996.

3. Белинский В.Г. Полное собрание сочинений. М-Л., 1980
4. Махмуд Кашғарий «Девану лугат-ит-турк». Тошкент, т. I - 1960, т. II -1961, т. III – 1963, т. IV – 1967.
5. Махмұт Қашқари Түрік сөздігі. Үш томдық. Алматы «ХАНТ» баспасы, 1997-1998.
6. Мәмбетов К. Ерте дәйирдеги қарақалпақ әдебияты. Нөкис, 1992.
7. Муталибов С. М. Кашгарский «Девану лугат-ит турк» - АДД. - Ташкент, 1967.
8. Насыров Д. Основные особенности диалектов каракалпакского языка и их отношения к «Девану-лугат-ит турк» М.Кашгари. // Вестник КК ФАН сыпатында // ӨзИАҚҚ филиалының Хабаршысы, №1,2, 2004.
9. Насыров Д. Становление каракалпакского общенородного разговорного языка и его диалектная система. Нукус-Казань: Каракалпакстан, 1976. 398 С.
10. Нурмаханов А. Нақыл-мақаллар фразеологизмлердин ажыралмас бөлеги сыпатында. ӨзИАҚҚ филиалының Хабаршысы, №1,2, 2004.
11. Пирниязова А.К. Қорақалпоқ тили фразеологизмларининг тарихий-даврий тавсифини аниқлашда Махмуд Қошғарийнинг лингвистик мероси аҳамияти. «Махмуд Замахшарий, Махмуд Қошғарий ва Алишер Навоийнинг лингвистик мероси ҳамда унинг туркий тилларни ўрганишдаги ўрни» халқаро илмий конференция материаллари. Самарқанд, 2018. 207-210 б.
12. Ҳамидов Ҳ. М.Қашғарий ҳәм қарақалпақ тилинин фонетикалық системасы // Вестник КК. ФАН УзССР, 1973, №1.